


# **Surxondaryodagi umumta'lim maktablarini yangi o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha seminar bo'lib o'tdi**

Image not found or type unknown



Seminarda maktablarni yangi o'quv yiliga puxta tayyorlash, jamiyatda o'qituvchi obro'-

e'tiborini oshirish, ularni vazifasidan tashqari ishlarga jalb qilmaslik, ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi masalalar muhokama qilindi. Viloyat rahbari o'qituvchilarni o'z vazifasidan tashqari ishlarga jalb qilgan har qaysi darajadagi rahbarga nisbatan keskin choralar ko'rilishini ta'kidladi.

Ta'lim muassasalari sharoitlarini yaxshilash, yangi o'quv yiliga tayyorlash maqsadida viloyat mahalliy byudjetidan 11 mlrd 195 mln so'm mablag' ajratilib, maktablarning ichki va tashqi yoritish chiroqlarini yangilash, o'quv binolarining pol, ichki va fasad qismlarini ta'mirlash uchun zarur bo'lgan materiallar xarid qilindi. Xarid qilingan ushbu materiallar seminar yakunida barcha hududlarda ta'mirlanishi rejalashtirilgan maktablar direktorlariga topshirildi va mutasaddilarga ta'mirlash ishlarini qisqa fursatlarda yakunlash topshirig'i berildi. Jumladan Termiz shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarufidagi maktablarni ham yangi o'quv yiliga ta'mirlash maqsadida zarur bo'lgan qurilish materiallari topshirildi.

**Termiz shahar hokimligi Axborot xizmati**